



MOLIYAVIY NAZORATNING NAZARIY ASOSLARI

Temirov Muxammadali Xamidovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
"Menejment va marketing" kafedrasi dotsenti, PhD.

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy nazoratning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunining nazariy jihatlari, uning jamiyatning moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarini tartibga solishdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: nazorat, moliyaviy nazorat, moliyaviy nazoratning nazariy asoslari.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ

Темиров Мухаммадали Хамидович

PhD., доцент кафедры «Менеджмент и маркетинг»
Международный университет Кимё в г. Ташкенте

Аннотация. В данной статье рассмотрены теоретические аспекты социально-экономического содержания финансового контроля, его роль в регулировании финансово-экономических процессов общества.

Ключевые слова: контроль, финансовый контроль, теоретические основы финансового контроля.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF FINANCIAL CONTROL

Temirov Mukhammadali Khamidovich

PhD., Associate professor, "Management and marketing"
Department Kimyo international university in Tashkent

Abstract. This article describes the theoretical aspects of the socio-economic content of financial control, its role in regulating the financial and economic processes of society.

Key words: control, financial control, theoretical foundations of financial control.

Kirish.

Har qanday hokimiyat o'z oldiga davlatning o'z moliyaviy manfaatlarini va fuqarolarning moliyaviy manfaatlarini ta'minlash huquqini qonuniy yo'llar bilan amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi. Nazoratni tashkil etish davlat moliyaviy resurslarini boshqarishning majburiy elementi hisoblanadi, chunki bunday boshqaruv jamiyat oldidagi javobgarlikni keltirib chiqaradi⁴⁰. Nazorat bu oxirgi maqsad hisoblanmaydi, nazorat bu boshqarish tizimining ajralmas qismi bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy shartidir (Xazratqulov va boshqalar, 2022).

Nazorat har qanday davlat boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, jamiyatning iqtisodiy va moliyaviy hayotining obyektini hisoblanadi. Nazorat siyosiy tizim tuzilmasi elementlaridan biri bo'lib, uning butun tizimi insoniyatning tarixiy taraqqiyoti, har bir ijtimoiy-iqtisodiy shakl, shuningdek, jamiyat siyosiy tizimlarining bosqichma-bosqich takomillashuviga mos ravishda rivojlanadi.

Ilmiy ma'noda moliyaviy nazorat - bu davlat va munitsipal mablag'larning sarflanishini, ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini va moliya sohasidagi amaldagi qonun hujjatlariga

⁴⁰ 1977 yil oktyabrda Oliy nazorat organlari xalqaro tashkilotining IX kongressida qabul qilingan nazoratning yetakchi tamoyillari to'g'risidagi Lima deklaratsiyasi

muvofigligini nazorat qilish bo'yicha faoliyatni o'rganish bilan bog'liq maxsus bilim sohasi xisoblanadi (Soliyev, 2022).

“Moliyaviy nazorat” tushunchasi moliyaviy huquq fanining fundamental kategoriyalaridan biridir. Moliyaviy nazorat murakkab hodisa bo'lib, bir vaqtning o'zida uning xo'jalik, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, siyosiy mohiyatini ko'rsatadi. Shu sababli moliyaviy nazorat kontseptsiyasini o'rganishda ayrim qiyinchiliklar mavjud. Bundan tashqari, olimlar o'rtasida nazoratning mohiyatini aniqlash bo'yicha konsensus mavjud emas. Mualliflar uni turlicha ta'riflaydilar: vosita, omil, shakl, element, funksiya, faoliyat, tizim, qayta aloqa, shart, tartibga soluvchi, kafil, hodisa, institut, usul, vakolat, atribut va hokazo” (Tarasov, 2002). Yuqorida qayd etilganlarning barchasi nazorat tushunchasini, xususan, moliyaviy nazoratni yanada ilmiy o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mazkur soha bo'yicha mavjud adabiyotlarning sharhi zamonaviy fanda “moliyaviy nazorat” tushunchasining turli xil talqinlari mavjud ekanligini ko'rsatadi. Ayrim mualliflar moliyaviy nazoratni keng ma'noda “mamlakat va alohida hududlarni samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlari mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish sohasidagi harakatlarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini nazorat qilish” (Dodonov va boshqalar, 1997) deb tushunadilar. Boshqalari esa torroq ma'noda, “moliyaviy nazorat - bu maxsus vakolatli organlar tomonidan moliya, pul, kredit, valyuta operatsiyalari ishtirokchilari tomonidan qonun hujjatlari talablari, davlat va mulkdorlar tomonidan belgilangan me'yor va qoidalarga rioya etilishini tekshirish” (Lushin va boshqalar, 2006) deb ta'kidlaydilar.

Moliyaviy nazorat nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlar bag'ishlangan. Moliyaviy nazorat nazariyasini rivojlantirishda professor Grachevaning (2000) yuridik fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu dissertatsiyada muallif moliyaviy nazoratning zamonaviy tushunchasiga asos soldi, xususan, ushbu tushunchaning ta'rifini taklif qildi, moliya huquqi sohasi doirasidagi moliyaviy nazorat tizimini, tamoyillarini va o'rnini asosladi, boshqaruv funktsiyasi sifatida davlat moliyaviy nazorati xususiyatlarini yoritdi.

Gracheva va boshqalar (2003) moliyaviy nazoratni davlat, munitsipal, jamoat organlari va tashkilotlari, qonun bilan tartibga solinadigan boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy rejalashtirishning o'z vaqtida va to'g'riligini, tegishli mablag'lar fondlariga tushumlarning asosiligi va to'liqligini, to'g'riligini va ulardan foydalanish samaradorligi tekshirish bo'yicha faoliyati deb ta'riflaydi.

Brovkina (2007) o'z ishida “moliyaviy nazorat – bu boshqaruv funktsiyasi bo'lib, u boshqariluvchi sub'ekt tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarning boshqaruvchi sub'ektning moliyaviy manfaatlariga muvofiqligini baholash bo'yicha nazorat qiluvchi sub'ektlarning faoliyatidir” deya ta'kidlaydi. Voronin (2005) ham moliyaviy nazoratni faqat qonuniylikni belgilash jarayoni sifatida emas, balki boshqaruv obyektining samaradorligi va natijadorligini baholash jarayoni sifatida ham ko'radi.

Shuningdek, mamlakatimiz olimlaridan Vahobov va Malikovlarning (2008) fikricha, barcha iqtisodiy sub'yektlarning (davlat, korxonalar va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi. Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunshilikka rioya etilishi, moliyaviy xo'jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o'z ishiga oladi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, moliyaviy nazorat u yoki bu moliyaviy harakat sodir bo'lishining baholashni o'z ichiga olish bilan cheklanmasdan, balki u o'zining analitik yo'nalishiga ega.

Moliyaviy nazorat – bu davlat va munitsipal pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishda qonunchilik, moliyaviy intizom va maqsadga muvofiqlik buzilishini aniqlash bo'yicha moliya institutlari faoliyati bilan bog'liq davlat nazoratining maxsus sohasidir (Voronova va boshqalar, 2009).

Vasylyk (2000) moliyaviy nazorat - bu moliyaviy boshqaruv tizimining elementi, barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning (davlat, hududlar, korxonalar va tashkilotlar) moliyaviy faoliyati, moliyaviy-iqtisodiy qonun hujjatlariga rioya etilishi, xarajatlarning maqsadga muvofiqligi, moliyaviy samaradorligini nazorat qilishning maxsus sohasi ekanligini qayd etdi.

Binobarin, moliyaviy nazoratning ushbu ta'riflarini ko'rib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, bunday nazorat davomida davlat moliya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, davlat va

jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar tomonidan o'z moliyaviy faoliyatlarida huquqiy tartibga rioya etilishini kuzatib borish; ikkinchidan, amalga oshirilayotgan moliyaviy harakatlarning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini, bu harakatlarning davlat oldida turgan vazifalarga muvofiq kelishini tekshirish amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat moliyaviy faoliyatni amalga oshirish paytida qonunchilikka rioya etish, xarakatlarni maqsadga muvofiqligini ta'minlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi (Xazratqulov va boshqalar, 2022).

Ximicheva (1997) - "umuman olganda, moliyaviy nazorat umumiy hokimiyat nazorati tizimidagi alohida tarmoq bo'lib, barcha moliyaviy-huquqiy institutlarga xosdir, deb aytishimiz mumkin. Moliyaviy nazorat vazifalarini amalga oshirish natijasida moliyaviy intizomning mustahkamlanishi, qonuniylik jihatlaridan birini ifodalashi muhim ahamiyatga ega" deydi.

Moliyaviy nazorat kontseptsiyasining ta'rifini faqat davlat mablag'lari harakatining to'g'riligini tekshirish bo'yicha faoliyat bilan cheklab qo'ymaslik kerak, bu shuningdek, moliyaviy huquqiy munosabatlar ishtirokchilari - odamlarning motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiluvchi omil ekanligini qayd etishimiz darkor.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada moliyaviy nazoratning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan bo'lib, tahlilning analiz, sintez va ilmiy abstraksiya usullari qo'llanilgan holda ilmiy natijalar ishlab chiqildi. Ishning uslubiy asosi sifatida iqtisodiyot va moliya sohasida tadqiqot olib borgan olimlarning ishlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda olimlarni moliyaviy nazorat tamoyillari muammosi qiziqtirmoqda. Moliyaviy nazorat tamoyillarining tushunchasi, mazmuni faoliyat turi sifatida ko'rib chiqiladigan ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Moliyaviy nazorat bir nechta tamoyillarga ega, ya'ni, uni amalga oshirishning boshlang'ich pozitsiyalari. Moliyaviy nazoratning tamoyillariga quyidagilar, xususan, mustaqillik, shaffoflik, malakalilik, oshkoralik, shuningdek, qonuniylik va rejalashtirish kiradi.

Orlov (2015) moliyaviy nazorat quyidagi funktsiyalar orqali ifodalanishi mumkin bo'lgan vazifalar to'plamiga ega ekanligini ta'kidlaydi:

- 1) nazorat qiluvchi;
- 2) ogohlantiruvchi;
- 3) tartibga soluvchi;
- 4) baholovchi – analitik.

Nazorat funktsiyasi moliyaviy nazoratning asosiy vazifasidir. Bu vazifa korxonada ichidagi mablag'lar harakatining barcha yo'nalishlarini tekshirish jarayonida amalga oshiriladi. Tekshirish barcha ishlab chiqarish, moliyaviy va biznes jarayonlarini kuzatish, moliyani taqsimlash nisbatlarini, ularning hajmlarini, tushumlarning o'z vaqtida olinishini, xarajatlarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Korxonada rahbariyati uchun nazorat vazifasini bajarish - muhim boshqaruv axborotidir. Moliyaviy nazorat jarayonida olingan ma'lumotlar korxonaning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlaydi, shuningdek, barcha moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarni eng katta foyda bilan amalga oshiradi.

Ogohlantiruvchi funktsiya moliyaviy boshqaruv jarayonining barcha bosqichlarida kuzatiladigan moliyaviy nazorat vazifasidir. Quyidagi bosqichlarda moliyaviy oqimlarni nazorat qilish kerak:

- mablag'lardan foydalanish muammosini belgilash;
- mablag'lardan foydalanish hajmlari va yo'nalishlari masalasini belgilash;
- moliyalashtirish bilan bog'liq rejalashtirilayotgan tadbirlarni belgilash;
- korxonaning strategik maqsadlariga erishish chora-tadbirlarini belgilash va boshqalar.

Boshqacha qilib aytganda, moliyaviy nazoratning ogohlantiruvchi vazifasi shundan iboratki, u yoki bu boshqaruv qarorini qabul qilish jarayonida moliyaviy huquqbuzarliklar to'xtatiladi, moliyaviy zaxiralar aniqlanadi, foyda keltirmaydigan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish xavfi minimallashtiriladi.

Tartibga soluvchi funktsiya moliyaviy nazoratning korxonada maqsadlariga erishish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirish bosqichida namoyon bo'ladigan vazifasi sanaladi. Ushbu vazifani bajarish uchun birlamchi hujjatlar tekshiriladi, tezkor hisob yuritiladi, audit va inventarizatsiya o'tkaziladi va hokazo. Bularning barchasi mumkin bo'lgan yo'qotishlar hajmini kamaytirish, korxonaning umumiy moliyaviy strategiyasiga o'z vaqtida tuzatishlar kiritish uchun zarurdir.

Moliyaviy nazoratning baholovchi – analitik funksiyasi boshqaruvning har bir bosqichida amalga oshiriladi. Moliyaviy nazoratning bu vazifasi iqtisodiy tahlilning turli usullari yordamida amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida moliyaning nazorat funksiyasi ushbu faoliyatning ma'lum bir o'ziga xosligi tufayli ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi va davlatdagi iqtisodiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Sifatni kafolatlaydigan va davlat faoliyatining samarali amalga oshirilishini ta'minlaydigan boshqaruv tizimining muhim qismi bu nazoratdir.

Nazoratning mohiyati boshqaruv obyektlariga maqsadli ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lib, u tizimli nazoratni, ularni amalga oshirish jarayonida belgilangan normalar, qoidalar, talablar yoki vazifalardan chetga chiqishlarni aniqlash uchun ularning faoliyatini nazorat qilishni ta'minlaydi (Gutsalenko va boshqalar, 2017). Izmodenov (2006) - "nazorat boshqaruvning bir qismi, moliyaviy nazorat esa moliyaviy boshqaruv tizimining elementi (qismi) hisoblanadi" degan g'oyani ilgari suradi.

Nazorat davlat va jamoat bo'lishi mumkin va turli tuzilmalarda, shu jumladan nodavlat tuzilmalarda ham qo'llanilishi mumkin. Odatda moliyaviy nazorat tizimi quyidagilarga bo'linadi:

- davlat moliyaviy nazorati;
- jamoatchilik nazorati va audit (mustaqil nazorat).

Nazorat qiluvchi va boshqariladigan tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning tabiatiga ko'ra, nazorat tashqi va ichki bo'lishi mumkin. Boshqarish sub'ekti va ob'ekti bir tizimga taaluqli bo'lsa, ichki nazorat, nazorat sub'yekti ob'ekt bilan bir tizimga kirmasa, tashqi nazorat deb ataladi.

Nazorat ham boshqaruv faoliyatining alohida turi sifatida qaraladi. Afanasievning fikriga ko'ra "nazorat - bu ob'ektning ishlash jarayonining qabul qilingan boshqaruv qarorlari: qonunlar, rejalar, me'yorlar, standartlar, qoidalar, buyruqlar va boshqalarga muvofiqligini; sub'ektning ob'ektga ta'siri natijalarini, boshqaruv qarorlari talablaridan, tashkil etish va tartibga solishning qabul qilingan tamoyillaridan chetga chiqishlarni va nazorat qilish va tekshirish bilan bog'liq faoliyatdir. Og'ishlar va ularning sabablarini aniqlash orqali nazorat xodimlari og'ishlarni bartaraf etish, tizimning optimal ishlashiga to'siqlarni olib tashlash uchun nazorat ob'ektini tashkil etishni to'g'rilash yo'llarini, obyektga ta'sir qilish usullarini aniqlaydilar" (Shoxin, 1995). V.G.Afanasyev ta'rifida berilgan nazoratning xarakteristikasi boshqaruvni alohida boshqaruv jarayonining bir qismi sifatida ifodalab bo'lmaydigan doimiy ravishda bajariladigan faol harakatlar sifatida ifodalaydi.

Nazoratning ta'rifi va uning mohiyatini ko'rib chiqib, moliyaviy nazoratga e'tibor qarataylik, chunki moliyaviy nazorat davlatlar moliyaviy faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Davlat nazorati tizimida davlat moliyaviy nazorati alohida o'rin tutadi. Umuman olganda, moliyaviy nazorat tarixan davlat g'aznasi mablag'larining sarflanishi ustidan davlat nazorati sifatida vujudga kelgan. Bizning fikrimizcha, moliyaviy nazoratning paydo bo'lishiga oid bunday qarash, tarixan, moliya davlatning paydo bo'lishi, uni funktsiyalarini ta'minlash bilan bog'liqligi umume'tirof etilganligi natijasida paydo bo'ldi.

Shu bilan birga, Rodionova va boshqalarning (1994) ta'kidlashicha, moliyaviy munosabatlarning (davlat moliyasining) bir qismining davlat mavjudligi bilan shartliligi, uning faoliyatini moliyani yaratuvchi sabab sifatida ko'rib chiqish uchun asos bo'la olmaydi. Moliyaviy munosabatlarning paydo bo'lishi, shuningdek, ularning so'lib ketishi davlat faoliyati, uning irodasi natijasi emas. Moliya ob'ektiv zarur, chunki u ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari bilan shartlangan. Garchi davlat o'z faoliyati orqali moliyaviy munosabatlarning rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa-da, lekin ob'ektiv shartlar mavjud bo'lmasa, u moliyaviy munosabatlarni yaratishga yoki ularni bekor qilishga qodir emas. Bundan kelib chiqqan holda, moliyaviy nazorat tarixan nodavlat moliyaviy nazorat sifatida vujudga kelgan va faqat davlat paydo bo'lishi bilangina yangi tur - davlat moliyaviy nazorati paydo bo'lganligini ta'kidlash mumkin.

"Moliyaviy nazorat" "davlat moliyaviy nazorati" tushunchasiga nisbatan kengroq tushunchadir. Shu bilan birga, davlat moliyaviy nazoratini moliyaviy nazoratning bir qismi sifatida qabul qilishimiz mumkin, chunki u xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan o'z faoliyati doirasida mustaqil ravishda amalga oshiriladigan moliyaviy nazoratni o'z ichiga olmaydi. Muallifning fikricha, "davlat moliyaviy nazorati" tushunchasining hal qiluvchi omili aynan davlat va moliyaviy va moddiy resurslarning harakatidir.

Burtsev (2002) davlat moliyaviy nazoratini keng ma'noda davlat moliyaviy oqimlarining to'liq va ob'ektiv tasvirini shakllantirishdan iborat bo'lgan hodisa deb hisoblaydi. Davlat moliyaviy nazorati moliyaviy oqimlardan "jamlangan ob'ekt sifatida ... ikkita asosiy jihatda" foydalangan holda moliyaviy tizimni dinamikada baholashga imkon beradi:

- 1) davlat ishtirokidagi iqtisodiy munosabatlar (operatsiyalar) subyektlari nuqtai nazaridan;
- 2) davlat ishtirokidagi iqtisodiy munosabatlar turlari nuqtai nazaridan”.

Davlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadi ishlab chiqarishning barcha sohalarida moliyaviy resurslarni boshqarish amaliyotining davlat moliyaviy siyosatining vazifalariga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Davlat moliyaviy nazoratining eng muhim vazifasi davlat organlari va jamiyatni davlat mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha keng qamrovli va ishonchli axborot bilan ta'minlashdan iborat (Rasulova, 2021). Davlat boshqaruvining, birinchi navbatda, iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning funksiyalaridan biri sifatidagi davlat nazoratining roliga yetarlicha baho bermaslik ushbu nazorat harakatlarining samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Moliyaning nazorat funktsiyasi, avval aytib o'tilganidek, "ijtimoiy mahsulot qiymatini qayta taqsimlash va uni taqsimlashda" namoyon bo'ladi. Shunday qilib, davlatning moliyaviy nazorat funktsiyasi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan namoyon bo'ladi. Va bunda byudjet mablag'lari hamda davlat mulkidan foydalanishning qonuniyligi va samaradorligini ta'minlash asosiy vazifa sanaladi.

Muallifning fikricha, moliyaviy nazorat va davlat moliyaviy nazorati o'rtasidagi farq quyidagicha:

- moliyaviy nazorat turli tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan nazoratni o'z ichiga oladi, ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati nuqtai nazaridan davlat moliyaviy nazorati faqat davlat mablag'lari harakatining asosligi nuqtai nazaridan cheklanadi (soliqlar va davlat mablag'lari xarajatlari, agar mavjud bo'lsa korxonalar orqali o'tsa);

- davlat moliyaviy nazorati orqali davlatning tashkiliy faoliyati davlat iqtisodiy siyosatining bir qismi - moliyadan amaliy foydalangan holda amalga oshiriladi;

- davlat moliyaviy nazorati muayyan pul munosabatlarini davlat tomonidan ham bevosita, ham bilvosita tartibga solishni o'z ichiga oladi.

Xulosa va tavsiyalar.

Shunday qilib, moliyaviy nazorat moliyaviy faoliyatni amalga oshirish paytida qonunchilikka rioya etish, xarakterlarni maqsadga muvofiqligini ta'minlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qilsa, davlat moliyaviy nazorati esa davlatning jamiyatdagi moliyaviy munosabatlarni bevosita va bilvosita tartibga solish bo'yicha faoliyatini o'z ichiga olgan tushuncha bo'lib, u moliyaviy huquqiy munosabatlar sub'ektlari orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, bozor munosabatlarining rivojlanishi moliyaviy nazorat nazariyasi va amaliyoti oldiga yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan, moliyaviy nazorat institutini shakllantirishning bir qator kontseptual asoslarini aniqlashtirish, uning organlari faoliyatining amaldagi amaliyotini tushunish, nazorat harakatlarini amalga oshirishning yanada zamonaviy metodologiyasi va uslublarini ishlab chiqish talab etiladi. Moliyaviy nazorat organlarining samarali faoliyat yuritishining sharti sifatida ularning kadrlar salohiyatini shakllantirish masalasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu muammolarni ham ilmiy, ham amaliy jihatdan hal etish kompleks moliyaviy nazoratning yaxlit va uyg'un tizimini shakllantirishning muhim shartidir.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Gutsalenko, L. Derii, V., & Kotsupatry, M. (2017) Derzhavnyi finansovyi kontrol [State financial control] (Kyiv: Tsentri uchbovoi literatury), 424 p.

Rasulova Sh.X. (2021) Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uni to'g'ri hisobga olish zaruriyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (10), p.713-718.

Vahobov A.V., Malikov T.S. (2008) Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 316 b.

Vasylyk, O. (2000) Teoriia finansiv [Theory of Finance] (Kyiv: NIOS), 416 p.

Voronova, L., Kucheriavenko, M., Prishva, N. et al. (2009) Finansove pravo Ukrainy [Financial Law of Ukraine] (Kyiv: Pravova yednist), 395 p.

Xazratqulov Yo.R., Abdunaimova I.Z., Xazratova L.A., Qahramonov Q.Q., Burxonova M.T. (2022) Byudjet mablag'laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratni takomillashtirish. "Science and Education" Scientific Journal. / Volume 3 Issue 11. 1171b.

Бровкина Н.Д. (2007) Основы финансового контроля. М., 382 с.

- Бурцев В.В. (2002) Организация системы государственного финансового контроля в Российской Федерации: теория и практика. М.: Дашков и К°. С.15
- Воронин Ю.М. (2005) *Государственный финансовый контроль*: вопросы теории и практики. М.: Финансовый контроль, 432 с.
- Грачева Е.Ю. (2000) Проблемы правового регулирования государственного финансового контроля : дис.доктора юрид. наук. М. 377 с.
- Грачева Е.Ю., Ивлиева М.Ф., Соколова Э.Д. (2003) Финансовое право в вопросах и ответах / Под ред. Е.Ю. Грачевой. М. С. 41–42.
- Додонов В.Н., Крылова М.А., Шестаков А.В. (1997) Финансовое и банковское право: Словарь-справоч. / Под ред. д.ю.н. О.Н. Горбуновой. М. С. 240.
- Измоденов А.К. (2006) Государственный финансовый контроль. ИЗВЕСТИЯ УргЭУ. № 4(16). С.140
- Исаев Ф. Совершенствование налогообложения имущества //Экономика и инновационные технологии. – 2021. – №. 6. – С. 326-333.
- Исаев, Ф. (2023). Солиқ текширувлари: аудит самарадорлиги таҳлили. Иқтисодий ва инновацион технологиялар, 11(1), 394–401. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a42
- Исаев, Ф. (2022). Йирик корхоналар мисолида солиқ йиғилувчанлиги кўрсаткичини таҳлил қилиш методикасини такомиллаштириш. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(1), 317–326. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/955>
- Исаев Ф. Аудит самарадорлигининг назарий-амалий талқини //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 359-361.
- Жумаев, Н., Ризаев, Н., & Исаев, Ф. (2023). Ўзбекистонда бухгалтерия ҳисобини халқаро стандартларга мувофиқлаштиришда туркий давлатлар тажрибаси. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(2), 58–67. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1014>
- Исаев, Ф. (2023). Солиқ юкини камайтиришда солиқ таҳлилининг таъсирига оид назарий мулоҳазалар. International Journal of Economics and Innovative Technologies, 11(2), 415–421. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss2/i41
- Лушин С.И., Слепов В.А. (2006) Государственные и муниципальные финансы: Учебник /М. 761 с..
- Орлов П.Б. (2015) Основы финансовой политики. – СПб: Питер. 228 с.
- Родионова В.М., Вавилов Ю.Я., Гончаренко Л.И. (1994) Финансы / – М.: Финансы и статистика, С.19.
- Ситник А.А. (2020) Правовое регулирование финансового контроля и надзора в сфере денежного обращения в Российской Федерации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук, Москва. С.7
- Солиев Д.Ж. (2022) Концепция финансового контроля в условиях модернизации экономики и его роль. Central Asian journal of theoretical and applied sciences Volume: 03 Issue: 06, ISSN: 2660-5317. С.54
- Тарасов А.М. (2002) Государственный контроль: сущность, содержание, современное состояние // Журнал рос.права. № 1. С.26.
- Химичева Н.И. (1997) Финансовое право: Учебник / М. С. 84.
- Шохин, С.О. (1995) Бюджетно-финансовый контроль в России (теория и практика) / – Москва : Прометей. 64 с.